

**MAMLAKATIMIZDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY
TADBIRKORLIKNI KENG QAMROVLI RIVOJLANTIRISH**

Karimova Mavjuda Boxodirovna,

"Buxgalteriya hisobi va audit" kafedrası katta o'qituvchisi, NamMTI

mavjudakarimova2@gmail.com

Калит сўзлар: *kichik biznes, xususiy tadbirkorlik, yoshlar tadbirkorligi, daromad, naf olish, tadbirkorlik faoliyati, maksimal foyda, moliyaviy qo'llab-quvvatlash .*

Аннотация: *Mazkur maqolada mamlakatimizda kichik biznesni rivojlantirishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi masalalarini o'rganishga alohida e'tibor qaratiladi.*

Ключевые слова: *малый бизнес, частное предпринимательство, молодежное предпринимательство, доход, прибыль, предпринимательство, максимальная прибыль, финансовая поддержка .*

Аннотация: *В данной статье особое внимание уделено изучению вопросов государственной поддержки в развитии малого бизнеса в нашей стране.*

Keywords: *small business, private entrepreneurship, youth entrepreneurship, income, profit, entrepreneurship, state policy towards youth, young specialist, maximum profit, financial support.*

Abstract: *This article pays special attention to the study of issues of state support for youth entrepreneurship.*

Kirish

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda keng qamrovli chora- tadbirlar yangi tadbirkorlik sub'ektlari ish o'rinlarini ko'payishi ko'rinishida o'z natijasini ko'rsatib bormoqda .

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni samarali faoliyat yuritishi va rivojlanib borishi ko'p jihatdan ular uchun yaratilgan shart sharoitlarga bog'liq. Kichik tadbirkorlik rivojida qulay imkoniyat yaratuvchi infratuzilma xizmatini alohida ko'rsatish lozim.

Biznes faoliyati pivojlanish japyoniga tashqi va ichki omillap ta'sip ko'rsatadi.

Ichki omillapga kopxonalapning katta-kichikligi, resurslap miqdori va uni taqsimlanishi, texnologik darajasi, mehnatni tashkil etish usullapi, baho siyosati va boshqalap kiradi.

Tashqi omillap kopxonadan tashqaridagi muhit ta'sirida vujudga keladigan omillar: bozop kon'yunktupasi va raqobat muhiti, mol yetkazib bepuvchi va iste'molchilarning xatti-harakatlapi, tabiiy-iqlimiy shapt-sharoitlar, siyosiy va ijtimoiy omillar, huquqiy-me'yoriy baza va davlat boshqaruvi kabi omillar kiradi.

2024-yilda O'zbekiston Respublikasi yalpi ichki mahsulotining o'sish sur'ati 5,6-5,8 foiz, unda sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 6 foizga, qurilish ishlari – 6,3 foiz, qishloq xo'jaligi – 4 foizga va bozor xizmatlari – 14,9 foizga o'sishi prognoz qilinmoqda. Bunda, asosan “O'zbekiston–2030” strategiyasi va barqaror rivojlanish milliy maqsadlarida nazarda tutilgan ustuvor yo'nalishlar va vazifalarga erishish inobatga olingan, xususan:2030-yilga qadar iqtisodiyot hajmini 2 barobar oshirish va “daromadi o'rtachadan yuqori bo'lgan davlatlar” qatoriga kirish uchun yalpi ichki mahsulot hajmini 160 milliard dollarga yoki uni aholi jon boshiga 4 ming dollarga yetkazish;– asosiy kapitalga kiritiladigan investitsiyalar hajmining yillik o'rtacha 7 foiz atrofida o'sishini ta'minlash orqali kelgusi 7 yilda asosiy kapitalga 250 mlrd dollardan ortiq investitsiyalarni o'zlashtirish va unda 110 mlrd dollardan ortiq xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, 2030-yilga borib esa yillik eksport hajmini 45 mlrd dollarga yetkazish va shu kabi boshqa asosiy vazifalardan kelib chiqib prognoz qilindi.

2023-yilning yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar jami 4778 ta (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) bo'lib, ular hududlar kesimida quyidagi ko'rinishda taqsimlangan :

No	Hududlar	2023-yil yanvar-dekabr
1	Namangan shahar	1257
2	Mingbuloq	327
3	Kosonsoy	274
4	Namangan tumani	250
5	Norin	252
6	Pop	327
7	To'raqo'rg'on	377
8	Uychi	286
9	Uchqo'rg'on	454
10	Chortoq	391
11	Chust	341
12	Yangiqo'rg'on	242
	Viloyat bo'yicha jami:	4778

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish, ularni erkin faoliyat yuritishi uchun qulay sharoit va muhit yaratish borasida amalga oshirilayotgan tadbirlar davomida 2023- yil 1-mart holatiga ro'yxatga olingan jami kichik tadbirkorlik (biznes) subyektlarining soni 34 557 tani tashkil qildi. (2022- yil 1-martga nisbatan 111,9 % ga ko'pdir)

Eng ko'p kichik biznes subyektlari savdo tarmog'ida (jami tashkil etilgan subyektlarning 36,3 %), sanoat sohasida (24,1 %), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida (9,6 %) va qurilishda (7,5 %) tashkil etilgan.

Hududlar bo'yicha yangi tashkil topgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

No	Hududlar	2022- yil yanvar-mart	2023- yil yanvar-mart
	Viloyat bo'yicha jami	1 379	1272
1	Namangan shahar	413	344
2	Mingbuloq	38	109
3	Kosonsoy	82	57
4	Namangan	64	54
5	Norin	99	70
6	Pop	64	100
7	To'raqo'rg'on	84	78
8	Uychi	92	94
9	Uchqo'rg'on	115	109
10	Chortoq	102	96
11	Chust	127	73
12	Yangiqo'rg'on	99	88

2023-yilning yanvar-mart oylarida yangi tashkil topgan kichik korxonalar va mikrofirmalar hududlar bo'yicha eng ko'p Namangan shahrida – 344 ta, Uchqo'rg'on tumanida – 109 ta, Mingbuloq tumanida – 109 ta, Pop tumani – 100 ta, Chortoq tumanida – 96 ta, Uychi tumani – 94 ta, Yangiqo'rg'on tumani – 88 ta, To'raqo'rg'on, Chust, Norin tumanlarida bu ko'rsatkich o'rta darajani tashkil etgan. Eng past ko'rsatkich Namangan tumanida 54 tani tashkil etdi.

2023- yil yanvar-mart oylarida hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning jami miqdoridan eng ko'p ulushi Namangan shahrida – 27,0 %, Uchqurg'on tumanida – 8,6 %, Mingbuloq tumanida – 8,6 %,

Pop tumanida -7,9 %, Chortoq tumanida - 7,5 %, Uychi tumanida – 7,4 % va Yangiqo'rg'on tumanida – 6,9 % tashkil etdi.

2023- yil yanvar-mart oylarida yalpi hududiy mahsulotning 64,5 % (2022-yil yanvar- mart oylarida 64,7 %) kichik biznes subyektlari tomonidan ishlab chiqarildi.

Kichik biznes subyektlari tomonidan 52,5 mln. AQSH dollari (umumiy eksport hajmining 40,5 %) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) eksport qilindi, 123,1 mln. AQSH dollari (umumiy import hajmining 68,2 %) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) import qilindi.

O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni har tomonlama qo'llab- quvvatlash va rag'batlantirish, ularni erkin faoliyat yuritishi uchun qulay sharoitlar yaratilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 5 oktyabrdagi "Tadbirkoplik faoliyatining jadal rivojlanishini ta'minlashga, xususiy mulkni har tomonlama himoya qilishga va ishbilapmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-4848 sonli farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 22 yanvardagi PF-5308-con "Faol tadbirkoplik, innovatsion g'oyalap va texnologiyalapni qo'llab-quvvatlash yili"da amalga oshirishga oid Davlat dasturi to'g'risidagi Farmoni.
3. Shodmonov Sh.Sh., B.E. Mamapaximov "Iqtisodiyot nazariyasi". – T.: Iqtisod-moliya, 2016. – 65-b.
4. O'lmacov A., Vahobov A. "Iqtisodiyot nazariyasi" Toshkent "Iqtisod-moliya", 2014. 32-b.
5. Karimova, M. (2023). Urgent Issues of Accounting for Fixed Assets in the Context of Modernization of the Country. Best Journal of Innovation in Science, Research and Development, 2(10), 96-100.
6. Каримова, М. Б. (2023). УЧЕТ АРЕНДЫ ОСНОВНЫХ СРЕДСТВ В СООТВЕТСТВИИ С МСФО. Miasto Przyszłości, 41, 27-32.

7. Sobirov, O. O., Karimova, M. (2023). Problems of Effective use of Key Equipment in Enterprises. International journal of Formal Education, 2(6), 366-368.

8. <http://www.ref.uz>.

9. [www. inter-pedagogika.ru](http://www.inter-pedagogika.ru)

10. <http://www.ziyonet.uz>.

11. <https://namstat.uz/uz/> maълumotlari